

MILLIY TILIMIZNING JAMIYAT RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI

Matjanov Sherali Ataxanovich

Ajiniyoz nomidagi NDPI O‘zbek tili kafedrasida assistent o‘qituvchisi

Turkbenbayeva Dilafruz Raxim qizi,

Ajiniyoz nomidagi NDPI O‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilining hozirgi kundagi obro‘si, jamiyat hayotidagi o‘rni va jahondagi nufuzi haqida, tilning millat ravnaqi uchun zarurligi, uning rivoji uchun yurtimizda amal oshirilayotgan ishlar xususidagi fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: milliy til, millat, jamiyat, nufuz, xalqaro, islohot, madaniyat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari xalqimiz hayotida tub burilish yasab, til borasidagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

O‘tgan yillar mobaynida ona tilimizning davlat tili mavqeining mustahkamlanib borishi, milliy tilimizda yuz berayotgan ijobiy hodisalarni o‘rganish, ilmiy tadqiq etishga e‘tibor kuchaydi. Bu esa ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ona tilining qamrovi ortib borishiga, lisoniy muammolarning to‘g‘ri ilmiy hal etilishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda o‘zbek tilshunosligi muammolarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada mamlakatimizdagi mavjud ko‘p tilli jamiyat va amalda bo‘lgan turli tillarning o‘zaro ta‘siri, holati, mukammallashuvi, mavqeining oshishi hamda funktsional rivojlanishi masalalariga oid izchil tahlillarning yetarli emasligi, bu yo‘nalishdagi ilg‘or jahon tajribasini tadqiqotlarda samarali qo‘llash hamda o‘zbek tilining chet davlatlarda masalalari bo‘yicha izlanishlarni olib borish tilshunosligimizdagi muhim vazifalar biridir.

Hamma davrlarda elning ilg‘or farzandlari, ijodkorlar, ziyolilar o‘zbek tili, ya‘ni ona tili, uning hayoti, kelajagi uchun doimo qayg‘urib kelishgan. Ayniqsa, bu millat tarixi va ma‘naviyatning o‘zgarib borish vaqtlarida, o‘zlikni anglash zarurlari paydo bo‘lgan paytlarida yaqqol ko‘zga tashlangan. Xususan, xonlik davrlarida yashagan buyuk mutaffakir olimlar, yoki yaqin o‘tmishda yashab o‘tgan jadidlar ham o‘z tili rivojlanishi uchun qanchadan-qancha harakatlarni amalga oshirgan. Ona tili himoyasi va uning taraqqiyoti uchun olib borilgan ishlar buning yaqqol dalili desak

mubolag‘a bo‘lmaydi. Ular til himoyasini vatan himoyasi bilan tenglashtirgan va bu mavzularda ko‘plab asarlar ham yaratishgan. Birgina Alisher Navoiyning “Muhokamat ul lug‘atayn” asari nafaqat, Sharq balki G‘arb mamlakatlari uchun ham namuna bo‘la oladi.¹

Mustabid tuzum zamonlarida milliy tillarga bepisandlik va ularni har tomonlama kamsitish avj olgan paytlarda ham millatning asl farzandlari ona tili tili himoyasi uchun qo‘lidan kelgan barcha chora tadbirlarni ishga solishgan. O‘ljas Sulaymonning “Az i Ya” kitobida turkiy tilning teran ildizlari, taraqqiyot bosqichlari, uning beqiyos qirralari haqida teran va dadil qarashlarni ilgari surgan². Mustaqillik arafasida oilaviy va bozor tili darajasigacha tushib qolgan o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berish haqidagi fikr va takliflar samarasiz ketmadi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Davlat hujjatlari, davriy nashrlar, darsliklar ona tilimizda yozila boshlandi. Bu xalqimiz ruhini ko‘tardi. Aynan, mustabid tizim davrida ham o‘zbek tilini tiklashga, uni Davlat tiliga aylantirishga intilish kuchli bo‘lgan. Xususan, ona tiliga bag‘ishlangan turli tadbirlar mustaqillik arafasida tez-tez o‘tkazilib turilgan. 1988-yil matbuotlarda yangi bayram – “Til bayrami” haqida ma’lumotlar paydo bo‘la boshlagan. Bunday bayram Rossiya, Ukraina, Boltiq bo‘yi va Kavkaz orti Respublikalarida va mamlakatimiz poytaxtida o‘tkazilgani haqida gazetalarda maqolalar ham bosilib chiqilgan. Bu bayramlarning asosiy birdan bir maqsadi – ona tilini e’zozlash, ona tili bilan birga boshqa tillarni ham chuqurroq o‘rganishga dav‘at qilish bo‘lgan.

O‘zbekistonda ilk bora “Til bayrami” 1988-yil 3-dekabrda Toshkentning talabalari tomonidan tashkil etilgan. Bu tadbir ko‘proq talabalar miting-namoyishiga o‘xshab ketar edi. Davraga notiqalar chiqib, ona tuproq, ona yurt, xalq, til haqida so‘zlab, she‘rlar o‘qib, ularni asrashga dav‘at qilishdi. Yig‘ilganlar “Til – xalq boyligi”, “O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilsin!”, “Tilga hurmat – elga hurmat” kabi rang-barang shiorlarni ko‘tarib olishgan edi³.

Bundan 35 yil muqaddam o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi juda katta voqea bo‘ldi. Bu o‘z davrida tom ma’noda olamshumul ishlarga sabab bo‘lgandi. Chunki, Beruniy, Ibn Sino, Al Xorazmiy, Al Farg‘oniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur Mirzo singari buyuk siymolarni yetishtirgan xalq tili yo‘qolish arafasiga kelib qolgan edi.

¹ <https://ndpi.uz/uz/2021/02/05/14123/>

² Elman Quliyev. Turkiy xalqlar adabiyoti [Matn]: – Toshkent: Rennans press, 2022. – 456 b.

³ https://conferences.uz/plugin/themes/bootstrap3/pdf/conf_34_2021

Istiqlol yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o‘zgarishlar yuz berdi. O‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro‘si oshdi. “Davlat tili” haqidagi qonun ona tilimizning bor go‘zalligi va jozibasini to‘la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratildi. Olimlar va mutaxassislar tomonida ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug‘atlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalar chop etildi. Mumtoz adabiyot namunalari, sakson besh mingdan ziyod so‘z va so‘z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni shevada qo‘llaniladigan so‘zlarni o‘z ichiga olgan besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridandir⁴.

Til – millat qiyofasining bir bo‘lagi. Dunyodagi barcha xalqlar o‘zining milliy rasmiy tiliga ega deb ayta olmaymiz. Chunki bu xalqning milliy mustaqilligi bilan bog‘liq. Mutaxassislarning aytishicha, bugungi kunda har ikki haftada bitta til yo‘qolib bormoqda. Bu o‘z navbatida o‘sha tilde so‘zlashuvchi xalqlarning yo‘qolishini anglatadi. YUNESKO vakillarining so‘zlariga qaraganda, qachonlardir odamlar so‘zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo‘lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud bo‘lib, ularning 90 foizi yo‘qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan sivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Bu tillarda so‘zlovchi aholining ayrimlari yozuvga ega bo‘lsa, ayrimlari bundan bebahradir. Qachonki bolalar o‘z ona tillarida o‘qishni to‘xtatar ekan, o‘sha til yo‘qolib ketish arafasiga kelib qoladi. Tillarni saqlab qolish bu o‘sha xalqning madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlarining saqlanib qolinishini anglatadi. Chunki, xalq taqdiri, til taqdiri bilan bevosita chambarchas bog‘liq. Til har bir millat madaniyatining o‘zagidir. Shu sababli ham tilning saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o‘qitadi, urf-odat, an‘analarini saqlaydi. Shunday ekan, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo‘shishda har birimiz tilimizga chuqur hurmat bilan yondashishimiz kerak.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrli bo‘lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo‘ladi. Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, “Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e‘tiborni mustaqillikka bo‘lgan e‘tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga

⁴ <https://cyberleninka.ru/article/n/har-bir-millatning-o-zliginianglatadigan-bu-uning-ona-tili-va-adabiyotidir/viewer>

aylantirishimiz lozim. Bu olijanob harakatni barchamiz o‘zimizdan, o‘z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak”.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
3. O‘zbek xalq bayramlari. “Sharq”. Toshkent .2005
4. <http://uza.uz/uz/politics/prezident-shavkat-mirziyoyevaning-o‘zbek-tiliga-davlat-tili-m-21.10.2019>
5. Mengliboevna, B. S., & Atakhanovich, M. S. (2021). Phonetic-Lexical Commonity and Characteristics in Uzbek and Karakalpak Literature Text Lexemas. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 10, 6-8.
6. Norov, I., & Xaytbayev, O. (2023). TIL TA’LIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUV. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(9), 65-72.
7. Norov, I. (2023). O‘QITISHNING ZAMONAVIY USULLARDA YONDASHUV. Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения, 1(6), 39-43.
8. Sherali, M. (2023). Qoraqalpoq xalq maqollarining ba’zi aksiologik xususiyatlari. Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari, 1(1), 73-76.
9. Norov, I., Yo‘ldoshev, J., & Yo‘ldoshev, S. (2023). ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARS TASHKIL QILISH. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(4), 40-47.
10. Matjanov, Sh., & Abduva, I. (2022). O‘zbek tilida qo‘llaniladigan ayrim maqollarning genetik, leksik-semantik xususiyatlari. Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в эпоху глобализации, 1(1), 82-83.
11. Matjanov, Sh., & Kurbanbaev, O. (2022). So‘z ichida so‘z... Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в эпоху глобализации, 1(1), 100-101.
12. Matjanov, S. (2022). LIRIKADA TABIAT TASVIRI. ZAMONAVIY TA’LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI, 1, 19-20.